



# ТАБРИКНОМА

## АНДИЖОН ВИЛОЯТИ ҲОКИМИ ТАБРИГИ

download from website [http:// www.andijan.uz](http://www.andijan.uz)

Андижон вилояти ҳокимлиги

**Andijon viloyati hokimi Sh.Abdurahmonovning  
9 may – Xotira va qadrlash kuniga bag`ishlangan bayram  
tantanasidagi  
T A B R I G I**

**9 may 2015 yil**

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!  
Qadrli faxriylar va hurmatli mehmonlar!

Respublikamizda 17 yildan buyon 9 may – Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Bu sana urushlarda qurbon bo`lgan millionlab yurtdoshlarimiz xotirasiga ta'zim qiladigan, bugun saflarimizda yurgan, osmonimiz musaffoligi, yurtimiz ravnaqi yo`lida xizmat qilgan nuroniylarga yuksak hurmat-ehtirom ko`rsatiladigan ezgu marosimdir.

Aziz yurtdoshlar, ushbu fursatdan foydalanib Sizlarni va Siz orqali barcha viloyatimiz ahlini, bugun oramizda sog`-salomat hayot kechirayotgan, urushda qatnashgan va front ortida mehnat qilgan barchamiz uchun aziz va muhtaram bo`lgan nuroniy otaxon va onaxonlarimizni mamlakatimiz bo`ylab nishonlanayotgan Xotira va qadrlash kuni bayrami bilan samimiy tabriklashga ijozat bergaysizlar.

Ushbu kunda biz el-yurtning tinchligi, osoyishtaligi, erk va ozodligi uchun kurashgan insonlar ruhini yodga olamiz. Mardlik va jasorat namunasini ko`rsatgan, jang maydonlarida jonini fido qilgan bobolarimizga, katta qiyinchiliklarni sabr-bardosh bilan engib o`tgan momolarimizga alohida hurmat va e'tibor ko`rsatamiz. Amalga oshirayotgan ushbu xayrli ishlarimiz natijasida o`tganlar xotirasini muqaddas saqlash, bugungi farovon hayotimizning mustahkam qasrini bunyod etayotganlar mehnatini e'zozlash har bir yurtdoshimizning qalbi va ongiga tobora singib bormoqda.

Zero, janglarda jafokash xalqimiz ne-ne asl farzandlaridan, oilaning tayanchi va suyanchi bo`lmish qanchadan-qancha navqiron o`g`lonlaridan judo bo`lgan. Oradan 70 yildan ortiq vaqt o`tgan bo`lsada ham yurtlarimiz mudhish janglar oqibatida qurbon bo`lgan yoki bedarak ketgan ajdodlarining unutilmas xotirasini armon bilan eslab kelmoqdalar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 6 mart kuni "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag`batlantirish to`g`risida" qabul qilingan Farmoniga muvofiq ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga 700 ming so`mdan pul mukofoti, "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g`alabaning 70 yilligi yubiley medali" berilgani mamlakatimizda o`sha og`ir kunlarni boshidan kechirgan ulug`larimizga muhtaram Yurtboshimiz tomonidan ko`rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasidir.

Prezidentimiz tomonidan ko`rsatilayotgan yuksak e'tiborning davomi sifatida viloyat hamda shahar, tuman markazlarida barpo etilgan xotira maydonlarida, urushda jasorat ko`rsatib, halok bo`lgan, front ortida kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay mehnat qilgan matonatli insonlarning aziz xotirasi oldida bosh egib, ta'zim qilish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Ayni paytda viloyatimizda 346 nafar urush qatnashchisi istiqomat qilmoqdalar. Urush ortida mehnat qilgan faxriylarimiz soni 5290 kishidan iborat. Quvonchlisi shundaki, ana shu otaxon va onaxonlarimizdan 98 nafari yuz va yuz yoshdan ortgan ulug`larimizdir.

Bugungi ayyomning muhim bir jihati shundaki, u bizni avvalambor safimizda tetik bo`lib yurgan oz sonli urush qatnashchilarini qadrlab, ularga mehr-oqibat ko`rsatib yashashga, muhtaram faxriylarimizning hayotini mazmunli qilish hamda umrini uzaytirishga, ularga nafaqat mana shunday bayram shodiyonalarida, balki har kuni, har soatda g`amxo`rlik va mehribonlik ko`rsatishga undaydi.

Bizni shunday farovon yashashimiz Siz azizlarning ko`rsatgan jasorat va matonatingiz evaziga ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Xotira va qadrlash marosimining yana bir muhim ahamiyati shundaki, u barchamizni bugungi notinch va tahlikali dunyoda doimo sezgir, hushyor va ogoh bo`lib, tinch-osoyishta hayotimizning, musaffo osmonimizning qadriga etib yashashga o`rgatadi.

Biz bunday notinchliklardan tegishli xulosa chiqarishimiz, yurtimizda hukm surayotgan tinchlikni, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashimiz zarurdir.

Aziz otaxon va onaxonlar !

Ushbu qutlug` kunda Sizlarni 9 may - Xotira va qadrlash kuni bilan samimiy muborakbod etar ekanman eng avvalo, barchangizga mustahkam sog`liq, uzoq umr, xonadoningizga fayzu baraka tilayman. Siz kabi faxriylarimiz hamisha elning e'zozida bo`lib, tinch va osuda osmon ostida keksalik gashtini surib yurishingizni istab qolaman.

Kelgusi yil mana shunday ulug` ayyom kunlarida Sizlar bilan takror yuz ko`rishish barchamizga nasib etsin.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo`lsin.

Yana bir bor bayramingiz muborak bo`lsin!

**E'tiboringiz uchun rahmat !**